

SUVLARNI MUHOFAZA QILISH BORASIDA HUQUQIY ISLOHOTLAR

Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna

NamDU yuridik fakulteti dotsenti +998972178415

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21131792>

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida suv resurslarini muhofaza qilish borasida amalga oshirilayotgan huquqiy islohotlar, ularning normativ-huquqiy asoslari hamda amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, suvdan oqilona foydalanish va ekologik xavfsizlikni ta'minlashdagi huquqiy mexanizmlar yoritiladi.

Kalit so'zlar: Suv resurslari, suvlarni muhofaza qilish, ekologik xavfsizlik, suv kodeksi, ekologik nazorat, suvdan foydalanish, huquqiy islohotlar, transchegaraviy suvlar, javobgarlik, barqaror rivojlanish.

ПРАВОВЫЕ РЕФОРМЫ В ОБЛАСТИ ЗАЩИТЫ ВОДНЫХ РЕСУРСОВ

Чубоева Озодахон Кувонбековна,

доцент юридического факультета НамГУ.

+998972178415

Аннотация: В статье анализируются правовые реформы, проводимые в Республике Узбекистан в области защиты водных ресурсов, их нормативно-правовая база и практическое значение. Также рассматриваются правовые механизмы обеспечения рационального использования водных ресурсов и экологической безопасности.

Ключевые слова: Водные ресурсы, защита водных ресурсов, экологическая безопасность, водный кодекс, экологический контроль, водопользование, правовые реформы, трансграничные воды, ответственность, устойчивое развитие.

LEGAL REFORMS ON WATER PROTECTION

Chuboyeva Ozodakhon Kuvonbekovna,

Associate Professor, Faculty of Law, NamSU

+998972178415

Abstract: This article analyzes the legal reforms being implemented in the Republic of Uzbekistan on the protection of water resources, their regulatory and legal framework and practical significance. It also covers legal mechanisms for ensuring rational use of water and environmental safety.

Keywords: Water resources, water protection, environmental safety, water code, environmental control, water use, legal reforms, transboundary waters, responsibility, sustainable development.

Kirish. Suv resurslari insoniyat hayoti, iqtisodiy taraqqiyot va ekologik muvozanatni ta'minlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Global iqlim o'zgarishi, suv

zaxiralarining kamayishi, aholi sonining ortishi va sanoat rivoji natijasida suvga boʻlgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Shu sababli suvlarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish masalasi davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishiga aylangan. Oʻzbekiston Respublikasida ham suv resurslarini muhofaza qilish va samarali boshqarish maqsadida keng koʻlamli huquqiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlar suvdan foydalanish tizimini takomillashtirish, ekologik xavfsizlikni taʼminlash hamda kelajak avlodlar uchun tabiiy resurslarni saqlab qolishga qaratilgan.

Asosiy qism. Suv resurslarini muhofaza qilishning huquqiy asoslari mustahkamlanmoqda. Oʻzbekiston Respublikasida suv resurslari bilan bogʻliq munosabatlar bir qator normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Jumladan, Oʻzbekiston Respublikasining Suv kodeksi qabul qilindi.[1] Ushbu norma suv obyektlari, suv xoʻjaligi obyektlari va suv fondi yerlaridan oqilona foydalanish hamda ularni muhofaza qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Suvdan foydalanish va uni muhofaza qilishning asosiy tamoyillarini belgilaydi. Ushbu kodeksga koʻra, suv davlat mulki hisoblanadi va undan oqilona foydalanish majburiy hisoblanadi. Shuningdek, “Atrof-muhitni muhofaza qilish toʻgʻrisida”gi Qonun[2] ekologik xavfsizlikni taʼminlashning umumiy qoidalarini belgilab beradi. Mazkur qonunda tabiiy resurslardan foydalanishning asosiy prinsiplari, shu jumladan suv resurslarini muhofaza qilish mexanizmlari mustahkamlab qoʻyilgan. Bundan tashqari, “Ekologik nazorat toʻgʻrisida”gi Qonun[3] asosida suv obyektlaridan foydalanish ustidan davlat va jamoatchilik nazorati amalga oshiriladi. Ushbu qonun suvlarning ifloslanishini oldini olishda muhim huquqiy vosita hisoblanadi.

Suvlardan foydalanuvchilar hozirgi suv bilan bogʻliq global muammolarga eʼtiborli boʻlishi talab etiladi. “Suv kodeksi”ga kir itilgan oʻzgart ishlar asosida suvdan foydalanish bilan bir vaqtda “suv isteʼmoli” degan yangi huquqiy tushuncha ham kirib keldi. Shunga koʻra, suvdan foydalanish va isteʼmol qilish huquqi subʼektlari huquqiy maqomi ham bir-biridan farq qiladi. Xususan, “Suv kodeksi”ga koʻra, suvdan foydalanuvchilar suv xoʻjaligining foydalanuvchi tashkilotlari, suv isteʼmolchilari uyushmalari, kommunal maishiy soha, gidroenergetika korxonalari, boshqa korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, Oʻzbekiston Respublikasi fuqarolari, boshqa davlatlarning fuqarolari hamda fuqaroligi boʻlmagan shaxslar boʻlishi mumkin.[4]

Suvlarni muhofaza qilish borasida amalga oshirilayotgan huquqiy islohotlarni amalga oshirishni davr taqozo etmoqda. Bu borada yangi mukammal ijro normalari qabul qilinmoqda va suvni isrof qilmaslik borasida yangi mexanizmlar shakllantirilmoqda. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirishga qaratilgan qator islohotlar amalga oshirildi. Xususan, suv xo‘jaligini boshqarish tizimi modernizatsiya qilinib, samaradorlikni oshirishga qaratilgan institutsional o‘zgarishlar joriy etildi. Suvni tejash texnologiyalarini joriy etish davlat siyosatining muhim yo‘nalishiga aylandi. Tomchilatib sug‘orish, yomg‘ir latib sug‘orish kabi zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash qonunchilik darajasida qo‘llab-quvvatlanmoqda. Bu esa suv resurslaridan oqilona foydalanishni ta‘minlashga xizmat qilmoqda. Ekologik nazoratni kuchaytirish ham muhim islohotlardan biri hisoblanadi. Davlat ekologik nazorat organlari tomonidan suv obyektlarining holati muntazam monitoring qilinmoqda. Suv sifati ustidan nazorat kuchaytirilib, ifloslanish holatlariga nisbatan qat’iy choralar ko‘rilmoqda.

Suv resurslarini muhofaza qilishda javobgarlik masalalari belgilangan. Amaldagi qonunchilikka ko‘ra, suv resurslarini muhofaza qilish qoidalarini buzganlik uchun turli xil javobgarlik choralari belgilangan. Xususan, suvlarni ifloslantirish, noqonuniy foydalanish yoki suv obyektlariga zarar yetkazish holatlarida ma‘muriy va jinoiy javobgarlik qo‘llaniladi. Ma‘muriy javobgarlik choralariga jarimalar kiradi, jinoiy javobgarlik esa og‘ir oqibatlarga olib kelgan holatlarda qo‘llaniladi. Bu esa suv resurslarini muhofaza qilishda huquqiy mexanizmlarning samaradorligini oshiradi.

Suvdan foydalanishda iqtisodiy va tashkiliy mexanizmlar takomillashtirilmoqda. Suv resurslaridan foydalanish pullik tizim asosida tartibga solinmoqda. Bu mexanizm suvni tejashga rag‘batlantiradi va undan samarali foydalanishni ta‘minlaydi. Shu bilan birga, suvdan foydalanish bo‘yicha limitlar belgilanishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Raqamlashtirish jarayonlari doirasida suv hisobini yuritish tizimi takomillashtirilmoqda. Bu esa suv sarfini aniq nazorat qilish va resurslardan oqilona foydalanishga imkon beradi.

Xalqaro hamkorlik va transchegaraviy suvlar masalasi xalqaro normalari takomillashtirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi transchegaraviy suv resurslaridan foydalanishda xalqaro hamkorlikni rivojlantirib kelmoqda. Markaziy Osiyo davlatlari bilan suv taqsimoti va undan foydalanish masalalarida kelishuvlar amalga

oshirilmoqda. Xalqaro huquq normalari asosida suv resurslaridan adolatli va oqilona foydalanish tamoyillari qo'llanilmoqda. Bu esa mintaqaviy ekologik muammolarni hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda so'nggi yillarda suv tanqisligi global muammolardan biriga aylandi.

O'zbekiston Respublikasida suv resurslarini muhofaza qilish sohasida amalga oshirilayotgan huquqiy islohotlar mamlakatda ekologik xavfsizlikni mustahkamlash, tabiiy resurslardan oqilona va samarali foydalanishni ta'minlashda strategik ahamiyat kasb etadi. Mazkur yo'nalishda suv qonunchiligini izchil takomillashtirish, uni xalqaro huquqiy standartlarga moslashtirish hamda huquqni qo'llash amaliyotini kuchaytirish muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Shu bilan birga, zamonaviy va innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish orqali suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, suv yo'qotilishining oldini olish va ekologik yuklamani kamaytirish imkoniyati yaratiladi. Raqamlashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish, suv resurslarini hisobga olish va monitoring qilishning zamonaviy tizimlarini joriy etish ushbu sohada yangi bosqichni boshlab beradi. Ekologik nazoratni kuchaytirish, davlat va jamoatchilik nazoratini uyg'unlashtirish, huquqbuzarliklar uchun javobgarlik muqarrarligini ta'minlash esa suv obyektlarini ifloslanishdan himoya qilishda muhim omil hisoblanadi. Aholining ekologik madaniyatini oshirish, suvga nisbatan ongli va mas'uliyatli munosabatni shakllantirish esa uzoq muddatli barqaror natijalarga erishishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Umuman olganda, ushbu chora-tadbirlarni kompleks va tizimli ravishda amalga oshirish orqali suv resurslarini saqlab qolish, ularning sifatini yaxshilash va kelajak avlodlar manfaatlarini ta'minlash mumkin. Bu esa o'z navbatida mamlakatning barqaror rivojlanishiga, ekologik muvozanatni saqlashga va aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining Suv kodeksi. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.07.2025-y., 03/25/1076/0672-son
2. O'zbekiston Respublikasining "Atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni. – T.: 1992-yil. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993-y., 1-son, 38-modda
3. O'zbekiston Respublikasining "Ekologik nazorat to'g'risida"gi Qonuni. – T.: 2013-yil. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013-y., 52-son, 688-modda

4. Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna. Ekologiya huquqi / Darslik /. – Namangan: “MASHRAB” nashriyoti, 2026. – 160 b.
5. Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna. INSON HUQUQLARI XALQARO STANDARTLARI VA MILLIY GENDER MASALALARI. O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. 33-SON 20.10.2024. 166-170-betlar.
6. Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna. Oila mustahkamligini ta’minlashda ota, ona, farzandlar tarbiyasi o’rni. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH VOLUME-7 ISSUE-10 (30- October) 44-50. VOLUME 7, ISSUE 10 (30- OCTOBER)
7. Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna. Oila ma’naviyati-jamiyat taraqqiyoti omili. So’nggi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi. 7-jild 10-son Respublika ilmiy-uslubiy jurnali 13.10.2024. 106- 112
8. Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna. Nikoh munosabatlarida milliylik va qonun normalarining amal qilishi. So’nggi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi. Respublika ilmiy-uslubiy jurnali. 13-mart, 2024-yil 7-jild 3-son. 131-135.
9. Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna. ХҲҲҲҲҲ СОҲАДА АЁЛ СИЙМОСИ. MODERN WORLD EDUCATION: NEW AGE PROBLEMS – NEW SOLUTIONS. International online conference. Date: 3 rdFebruary-2025. 40-43-betlar
10. Chuboyeva Ozodaxon Quvonbekovna. OILA GENEZISI. International Multidisciplinary Research in Academic Science (IMRAS). Volume. 8, Issue 03, March (2025). 231-235-betlar
11. Chuboyeva Ozodaxon Quvonbekovna. OILADA MAS’ULIYAT. International Multidisciplinary Research in Academic Science (IMRAS). Volume. 8, Issue 03, March (2025).227-230-betlar
12. Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna/ Oilada ekologik qadriyat. “JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH” VOLUME 8, ISSUE 5 .2024.30- May. 15-20-betldr